

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI ILMIY TADQIQOT ISHLARIGA YO‘NALTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Muhammadiyaheva Xadicha Karamatovna

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi kafedrasida dotsenti, PhD

Nizomiy nomidagi TDPU

Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi bo‘lajak boshlang‘ich sinif o‘qituvchilarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish tushunchasi, ilmiy tadqiqot atamasi, ilmiy tadqiqotni tashkil etish orqali talabalarni mustaqil ishlashga o‘rgatish ijodiy va ijtimoiy faolligini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: talaba, ilm, ilmiy tadqiqot, kasbiy madaniyat, metodologiya, talaba, pedagogika, oliy ta‘lim.

Bugungi kunda OTM fanlarini o‘qitishda ikki xil, bir qarashda bir-biriga zid bo‘lgan yondashuvni kuzatish mumkin. Bir tomondan – ma‘lum ta‘lim standartlariga erishishga, kompetensiyalarni rivojlantirishga va muvofiq imtihonlarga tayyorlash maqsadiga yo‘naltirilgan qat‘iy yondashuv. Haligacha ta‘lim tizimida ko‘plab yondashuv va usullar talqin va tahlilga, ya‘ni berilgan ma‘lumotni to‘g‘ri tushunib, to‘g‘ri yetkazib bera olishga, nari borsa, berilgan bir necha axborotlarni umumiy lashtirib, xulosa chiqara olishga yo‘naltirilgan. Ikkinchi tomondan – jamiyatda va ayniqsa, mehnat bozorida kreativ fikrlaydigan, innovatsiyalarga tayyor bo‘lgan mutaxassislariga bo‘lgan talabning oshishi ta‘limni tahsil oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirmoqda.

Uzoq yillar davomida mutaxassislardan kreativlik va o‘ziga xoslik emas, rejalashtirilgan vazifaning puxta va maksimal darajada aniq bajarilishi talab qilib kelindi. Bugungi kunga kelib, vaziyat o‘zgardi. Endilikda bo‘lajak mutaxassislar zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakaga, kompetensiyalarga ega bo‘lishi va olingan fundamental bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llay olishi lozim. Shu bilan ulardan maqsadga intiluvchanlik, jamoada ishlash, axborotni qayta ishlay olish, qaror qabul qilish va g‘oyalar ishlab chiqish talab etilmoqda. Bu esa zamonaviy oliy ta‘lim oldiga nafaqat talabalarga chuqur bilim berish, balki o‘quv jarayonini ularning kreativligini – ijodiy faolligini rivojlantiradigan tarzda tashkil etish va rejalashtirish vazifasini qo‘yadi. Zamonaviy tendentsiyalar bo‘lajak mutaxassislardan nafaqat zarur bilim va malakalariga, balki ularni butun kasbiy faoliyati davrida generatsiya qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab qiladi. Tadqiqotlar tahlilida yana bir jihat ko‘zga tashlandi: ayrim tadqiqotlarda kreativlikka ta‘lim vositasi nuqtai nazaridan qaralsa, ko‘pchilik tadqiqotchilar kreativlikni ta‘lim maqsadi sifatida baholashadi.

Ammo yuqoridagi tadqiqotlar OTM fanlarini o‘qitishda kreativ yondashuvning barcha jihatlarini to‘liq ochib bera olmaydi. OTM fanlarini o‘qitish jarayonida zarur kompetensiyalarni shakllantirish uchun barcha yo‘nalish – shaxs, jarayon, mahsulot uzviylikda dolzarblik kasb etishi talab qilinadi. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur‘ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoit pedagogning, shu jumladan bo‘lajak OTM fanlarini o‘qituvchilarining kreativlik sifatlariga ega bo‘lishini taqozo etadi.

Kreativlik pedagogni o'quv-tarbiya jarayonida yangi innovatsion yondashuvlarni izlashga, kasbiy kompetentsiyalarni mustaqil o'zlashtirishga undaydi. A.V. Morozov ta'kidlaganidek, pedagogik kreativlik o'qituvchining shaxslararo idrok etish, shaxslararo muloqot va shaxslararo munosabatlarda yuqori darajadagi malakaga ega bo'lishni talab qiladi". O'qituvchining ijodiy qarorlari intellektual va pedagogik kreativlikning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi: kreativlikning yuqori darajasida u "nafaqat turli xil innovatsion ta'lim tizimlariga yetarlicha moslashadi, balki ularni shakllantirish, rivojlantirish va pedagogik amaliyotga tatbiq etishda faol ishtirok etadi".

Kreativ ta'lim jarayoni uning har bir ishtirokchisiga har bir ta'lim darajasida nafaqat o'zining ijodiy salohiyatini rivojlantirish, balki o'z-o'zini anglash, ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish va obyektiv qadr-qimmatga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga imkon beradi.

Zamonaviy oliy ta'lim talabalar kreativligini namoyon bo'lishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo'lib, bu ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan ham bog'liq. Oliy ta'limda bo'lajak mutaxassisning kreativ salohiyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratish bo'yicha kelgusidagi ishlar uning malakasini shakllantirish uchun ham, uning muloqot qobiliyatini rivojlantirish uchun ham zarurdir. Shu sababdan OTM talabalarini kreativ yondashuvlar asosida ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslarini yaratish juda muhim.

Shundan kelib chiqib, ta'lim jarayonida o'qituvchi OTM fanlarini dan kreativ mashg'ulot o'tishi uchun faoliyatga yo'naltirilgan, yechimini topish uchun fanga oid kompetensiyalar, shaxsiy tashabbus, fantaziya, faollik, o'ziga xoslik talab qilinadigan vazifalar qo'yishi zarur.

Ta'limda kreativ yondashuvni innovatsion yondashuvdan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'lumki, innovatsiyalar - bu nazariy asoslangan, maksadga yo'naltirilgan hamda amaliy-mo'ljallangan yangilik sanaladi. Har kaday innovatsiya, kiritilgan yangilik ta'lim oluvchilardan yuqori darjadagi emotsionallik hamda intellektuallikni talab kiladi. Innovatsion faoliyat g'oyalarni yangiliklarga aylantirib beradi, shuningdek, ushbu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradi. Ya'ni, innovatsion faoliyat ta'lim tizimida ijobiy o'zgarishlarga yo'naltirilgan hamda pedagogni ijodkor shaxs sifatida rivojlantirishni, uni reproduktiv faoliyat turidan metodik yechimlarni mutaql izlashga o'tkazishni, pedagogni innovatsion metodikalar muallifiga, ularni ta'lim, rivojlantirish, tarbiyalash vostitasiga aylantiruvchi amaliyotchiga aylantirishni nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Морозов А. В. Формирование креативности преподавателя высшей школы в системе непрерывного образования: Дис. ... д-ра пед. наук. – Москва, 2004. – С. 332.